PREZIDENT MAKTABLARI O‘QUVCHILARINI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA OILA-MAHALLA-TA’LIM MUASSASASI HAMKORLIGINING IJTIMOIY-PEDAGOGIK AHAMIYATI

Musurmonqulov Oybek Urolovich
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, katta ilmiy xodim,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti
yetakchi ilmiy xodimi

Annotatsiya: Maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida Prezident maktablari o‘quvchilarida vatanparvarlik tuyg‘usini va yuksak fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda “oila – mahalla – ta’lim muassasasi” hamkorligining ijtimoiy-pedagogik ahamiyati yoritilgan. Muallif zamonaviy ta’lim texnologiyalari bilan birga milliy qadriyatlar va an’analarni o‘quvchilar qalbiga singdirish borasida ushbu uch tarbiya institutining o‘zaro hamjihatligi zarurligini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: prezident maktablari, vatanparvarlik tarbiyasi, oila-mahalla-ta’lim muassasasi hamkorligi, ijtimoiy pedagogika, barkamol shaxs, fuqarolik mas’uliyati, daxldorlik hissi, pedagogik madaniyat.

Аннотация: В статье освещается социально-педагогическое значение сотрудничества «семья – махалля – образовательное учреждение» в формировании чувства патриотизма и высокой гражданской позиции у учащихся Президентских школ в условиях Нового Узбекистана. Автор обосновывает необходимость взаимодействия этих трех воспитательных институтов в деле внедрения в сердца учащихся национальных ценностей и традиций наряду с современными образовательными технологиями.

Ключевые слова: президентские школы, патриотическое воспитание, сотрудничество семья-махалля-образовательное учреждение, социальная педагогика, гармонично развитая личность, гражданская ответственность, чувство сопричастности, педагогическая культура.

Abstract: The article highlights the socio-pedagogical significance of “family-mahalla-educational institution” cooperation in fostering a sense of patriotism and a high civic stance among students of Presidential schools under the conditions of New Uzbekistan. The author justifies the need for cooperation between these three educational

institutions in instilling national values and traditions into the hearts of students alongside modern educational technologies.

Keywords: presidential schools, patriotic education, family-mahalla-educational institution cooperation, social pedagogy, harmoniously developed personality, civic responsibility, sense of belonging, pedagogical culture.

Bugungi globallashuv sharoitida jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida inson kapitaliga bo‘lgan e’tibor tobora ortib bormoqda. Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida yosh avlodni har tomonlama barkamol, ma’nan yetuk, mustaqil fikrlaydigan va fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxs sifatida tarbiyalash davlat siyosati darajasidagi ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bu vazifani amalga oshirishda oila, mahalla va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi ijtimoiy-pedagogik hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot bosqichida ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlar yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashga qaratilgan bo‘lib, bu jarayonda Prezident maktablari alohida o‘rin tutadi. Prezident maktablari zamonaviy ta’lim texnologiyalari asosida faoliyat yurituvchi innovatsion ta’lim muassasalari sifatida nafaqat intellektual salohiyatga ega, balki yuksak ma’naviy fazilatlarga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

Mazkur ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda milliy g‘urur, Vatanga muhabbat va fuqarolik mas’uliyatini shakllantirish muhim tarbiyaviy vazifalardan biri hisoblanadi. Bu borada oila, mahalla va ta’lim muassasasi o‘rtasidagi hamkorlik Prezident maktablari faoliyatida ham muhim ijtimoiy-pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Ma’lumki, barkamol shaxs tarbiyasi jamiyatning uch asosiy instituti – oila, mahalla va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi o‘zaro hamjihatlik va tarbiyaviy maqsadlar uyg‘unligiga bevosita bog‘liqdir. Ushbu institutlar o‘rtasidagi hamkorlik yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, fuqarolik mas’uliyati, ijtimoiy faollik hamda mafkuraviy immunitetni shakllantirishga xizmat qiladi.

Prezident maktablari o‘quvchilarida vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish jarayonida milliy qadriyatlar, tarixiy meros va umuminsoniy g‘oyalarga tayanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning jamoada faol ishtirok etishi, ijtimoiy loyihalarda qatnashishi, mahalla va jamoat ishlariga jalb qilinishi orqali Vatan taqdiriga daxldorlik hissi rivojlantiriladi.

Ayniqsa, oila muhitida shakllangan milliy an’analar va ma’naviy

qadriyatlar Prezident maktablarida olinayotgan zamonaviy bilimlar bilan uyg‘unlashganda, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik va yuksak fuqarolik pozitsiyasi shakllanadi. Bu esa ular o‘rtasidagi ma’naviy-tarbiyaviy hamkorlikni yangi, samarali bosqichga ko‘tarishga zamin yaratadi. Yangi O‘zbekiston sharoitida oila va mahallaning hamkorlikdagi faoliyati yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, ularning ijtimoiy mas’uliyatini oshirish va jamiyat hayotida faol ishtirokini ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Mazkur hamkorlikning asosiy subyekti sifatida guruh rahbari o‘quvchilarning ota-onalari bilan doimiy aloqa o‘rnatib, ularning turmush sharoiti va oilaviy ma’naviy muhiti bilan tanishib boradi. O‘quvchining o‘qishi, xulqi, uyda, maktabda, mahalla va jamoat joylarida o‘zini tutishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘zaro almashish orqali uning shaxsiy rivojlanishi haqida obyektiv tasavvurga ega bo‘lish mumkin.

O‘zaro hamkorlik jarayonida ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish ta’lim muassasalarining muhim ijtimoiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu maqsadda tashkil etiladigan ma’ruzalar, suhbatlar va maslahatlar oilaviy tarbiya samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ta’lim muassasasi, mahalla va oila hamkorligi doirasida ota-onalar qo‘mitalari faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ular o‘quvchilarda salbiy odatlarning shakllanishining oldini olish, huquqbuzarlik holatlarini bartaraf etish, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish kabi vazifalarni amalga oshiradi.

Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, ta’lim muassasasi, mahalla va oila tomonidan o‘quvchilarga qo‘yilayotgan ma’naviy talablarning bir xil emasligi maktab o‘quvchilarida vatanparvarlik tuyg‘usidan ko‘ra xorij mamlakatlarida tahsil olish yoki o‘sha yurtlarda qolib ketish holatlarining oldi olinib, o‘z vataniga bo‘lgan mehr-muhabbati va mas’uliyatli bo‘lishga o‘rgatadi.

Ayrim hollarda ota-onalar farzandlariga mehr va g‘amxo‘rlikni ularni ortiqcha avaylash orqali namoyon etadilar. Natijada bolada mustaqil qaror qabul qilish va hayotiy qiyinchiliklarni yengish ko‘nikmalari yetarli darajada shakllanmaydi. Bu holat mazkur maktab o‘quvchilari ilk qiyinchiliklarga duch kelganda ularning ijtimoiy moslashuv jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bunday jarayonda o‘quvchilarga guruhdoshlari tomonidan bildiriladigan munosabat ham uning ma’naviy qiyofasiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli sinf va oila muhitida umumiy qadriyatlar tizimini shakllantirish, ijobiy fazilatlarni rag‘batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy an’analarning o‘zagi oilada shakllanadi. Shu nuqtayi nazardan, Prezident maktablari o‘quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash

jarayonini oila va mahalla bilan hamkorlikda tashkil etish yoshlarda milliy o‘zlikni anglash, jamiyat oldidagi mas’uliyatni his qilish va mamlakat taraqqiyotiga daxldorlik tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qiladi. Keyinchalik orttirilgan hayotiy tajriba uni shaklan o‘zgartirishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, milliy tarbiyani zamonaviy pedagogic yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish barkamol shaxs qilib tarbiyalash va ularning kelajakda mamlakat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shuvchi raqobatbardosh kadrlar bo‘lib yetishishida muhim omil hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekiston sharoitida yosh avlodni har tomonlama barkamol, ma’nan yetuk va mustaqil fikrlaydigan shaxs sifatida tarbiyalashda oila, mahalla va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik hal qiluvchi omil hisoblanadi. Ayniqsa, Prezident maktablarida olib borilayotgan zamonaviy ta’lim va tarbiya jarayoni milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirilganda, o‘quvchilarda vatanparvarlik tuyg‘usi, yuksak fuqarolik mas’uliyati va ijtimoiy faollik samarali shakllanadi.

Tarbiyaviy talablarning uyg‘unligi, ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish va o‘quvchilarni ijtimoiy hayotga faol jalb etish orqali barqaror ma’naviy muhit yaratiladi. Bu esa kelgusida mamlakat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘sha oladigan raqobatbardosh, tashabbuskor va vatanparvar kadrlarni voyaga yetkazishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi (2025-yil 26-dekabr) // URL: https://president.uz/uz/lists/view/8834

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.

4. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni.